

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA AKSIOLOGIK MUNOSABATLARNI IFODALAYDIGAN MADANIY KODLARINING XITOIY TILIGA KO‘CHISHI XUSUSIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-327-332>

Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ismatullayeva.nargiza@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida xalq qadriyatlarini, urf-odatlarini va ma’naviy-axloqiy munosabatlarni ifodalovchi madaniy kodlarning xitoy tiliga ko‘chish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy kod tushunchasining nazariy asoslari, aksiologik munosabatlarning mazmuni hamda ular tarjima jarayonida qanday namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tahlil jarayonida hurmat aksiologik madaniy kodi uch turda tasniflangan holda o‘zbek tilidan xitoy tiliga tarjimalarning ekvivalentlik va madaniy transfer jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqotda milliy qadriyatlarni to‘liq yetkazish uchun tarjimada aksiologik madaniy kodlarni chuqur tahlil etish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy kod, aksiologik madaniy kod, aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi, tarjima usullari, Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar.*

Abstract. *This article analyzes the characteristics of the transfer of cultural codes reflecting national values, traditions, and moral-ethical relations in Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar” (“Bygone Days”) into Chinese. The study substantiates the theoretical foundations of the concept of cultural code, the content of axiological relations, and their manifestation in the process of translation. During the analysis, the axiological cultural code of respect is classified into three types, and the equivalence and cultural transfer aspects of translations from Uzbek into Chinese are examined. The research results demonstrate that a deep analysis of axiological cultural codes in translation is essential for the complete transmission of national values in intercultural communication.*

Keywords: *cultural code, axiological cultural code, axiological relations, system of values, translation strategies, Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar.*

Kirish. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida yangi davrni boshlab bergan, milliy uyg‘onish jarayonlarini aks ettiruvchi va xalq qadriyatlari, urf-odatlarini, ijtimoiy hamda axloqiy munosabatlarini ifodalovchi yirik asardir. Romanda faqat badiiy voqelik emas, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, diniy va ma’naviy qarashlari ham o‘z aksini topgan. Shu bois, bu asarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida madaniy kodlarning ko‘chishi va ular orqali ifodalangan aksiologik munosabatlarni tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

N.Fedotova madaniy kodni madaniyat mazmunini ifodalash va uni ijtimoiy sohada yetkazish shakli sifatida ko‘radi [Losev 2024: 134]. V.Savitskiy va Ye.Charkasova madaniy kod bu ikkilamchi belgi tizimi bo‘lib, unda ifoda jihatdan etnomadaniyat tarkibiga kiruvchi ramziy obrazlar majmuasi namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [Savitskiy 2023: 4355].

Aksiologik munosabatlar esa qadriyatlar nazariyasiga tayanadi. D.Yusubovning ta’kidlashicha, qadriyatlar kategoriya bo‘lib, kishilar ongida turli narsa va hodisalarni taqqoslash orqali shakllanadi. Qadriyatlar bu narsalar emas, balki narsalar, hodisalar ba boshqalarga munosabatdir. [Xushnazarova 2024: 18]

Qadriyatliqlik xalqning mentaliteti – tilning ona so‘zlovchilari, uning tarixiy rivojlanishi hamda shu til guruhlarida mavjud bo‘lgan baholash mezonlari tizimi bilan belgilanadi. Ijtimoiylashuv, aniqrog‘i, madaniylashuv jarayonida inson tegishli madaniyatga moslashadi, ijtimoiy ahamiyatli hayotiy tajribalar, urf-odatlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Reallikdagi obyekt obrazi va obyektning o‘ziga berilgan baho qadriyatlarda aks etadi. Ma’lum bir lingvistik madaniyatning milliy qadriyat kodini ajratib olish esa tafakkur bilan bog‘liqlikni – ma’no shakllanish jarayonida tushunchalar shakllanishini ta’minlaydi. [Ilieva 2017: 27]

Aksiologik munosabat – shaxsdagi ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlilikning o‘zaro uzviyligini o‘zida aks ettiruvchi ichki pozitsiya. Bu esa shaxsning etuk inson sifatida voyaga etishi jarayonining tarkibiy qismidir. Mazkur munosabat bir shaxsgagina bog‘liq bo‘lmay, ijtimoiy guruh, jamiyat, millat va davlat uchun tegishli bo‘lishi mumkin. [Xushnazarova 2024: 19]

“O‘tkan kunlar” romanida muhabbat, fidoyilik, millatparvarlik, sadoqat, or-nomus kabi qadriyatlar asosiy badiiy motiv sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu qadriyatlarning tarjimada qanday ifoda topishi ularning qabul qiluvchi madaniyatga qanday o‘tishini belgilaydi.

Natijalar va muhokama. “O‘tkan kunlar” romanida mavjud madaniy kodlarni quyidagicha tasniflash mumkin: a) milliy-madaniy kodlar (*milliy kolorit*); b) diniy-madaniy kodlar (*duo, qarg‘ish, tavba qilish*); c) ijtimoiy-maishiy kodlar (*sovchilik, to‘y marosimlari, oilaviy munosabatlar*); d) stereotipik madaniy kodlar (*erkaklik va*

ayollik rollari); e) aksiologik madaniy kodlar (*qadriyatlar tizimi – hurmat, vatanparvarlik, sadoqat, fidoyilik*).

Bu kodlarning barchasi romanning badiiy mohiyatini shakllantirib, o'zbek xalqining milliy dunyoqarash va qadriyatlar tizimini ochib beradi.

Ushbu maqolada tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari va uning xitoy tiliga tarjimon Di Syaosya tomonidan amalga oshirilgan tarjima asaridagi hurmatni ifodalaydigan aksiologik madaniy kodlar olingan.

Kattalarga nisbatan hurmatda bo'lish.

Jamiyatdagi o'rni, kasbi, ijtimoiy darajasidan qat'iy nazar yoshi ulug' insonlarni qadrlash va ularga nisbatan hurmat ko'rsatish o'zbek millatining tarbiyasiga xos xususiyatdir. Mana shu jihat "O'tkan kunlar" romanida Otabekning o'z uyidagi xizmatchisi (quli) Xasanliga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol tarzida quyidagi suhbatni keltirish mumkin:

Otabek: *Tuzukmisiz, ota?..... Ba'zi yumushlar buyursam...*

Xasanali: *Buyuringiz, o'g'lim.*

Otabek: *Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.* [O'tkan kunlar, 8]

Xitoy tilidagi tarjimasi quyidagicha:

Otabek: 我最尊敬的人，您感觉如何？..... 您可以不用来服务我们！

Xasanali: 您吩咐吧，我的先生！

Otabek: 谢谢阿爸，给我们煮点茶喝吧！[往昔, 4-5]

Dialogdagi Otabekning birinchi so'rash shaklidagi jumlasiga kelsak, xitoy tilidagi *ota* murojaat so'zi xitoy tiliga "最尊敬的人" so'zma-so'z *eng hurmat qilgan insonim* tarzida tarjima qilingan. Albatta, bu o'rinda *ota* so'zi biologik ma'noda emas, balki hurmatni bildiruvchi murojaat sifatida ishlatilgan. Lekin uchinchi jumlada bu so'zga ekvivalent sifatida 阿爸 so'zi berilgan bo'lib, 阿爸 so'zi xitoy tilida *dada* ma'nosida qo'llaniladigan sheva so'zi hisoblanadi. Bu o'rinda ushbu so'z noo'rin qo'llanganligini ta'kidlab, insonga otadan keyin turadigan *amaki*, xitoy tilida 老伯 so'zini qo'llash to'g'riroq bo'lgan bo'lar edi.

Mazkur dialogdagi ikkinchi jumla ham xitoy tiliga "您可以不用来服务我们!" so'zma-so'z "*Siz bizga xizmat qilmasangiz ham bo'ladi*" deya noto'g'ri tarjima qilingan. Bu o'rinda asar qaxramoni yoshi ulug' kishiga hurmat ko'rsatgan holda to'g'ridan to'g'ri buyruq bermay, balki izn so'rash ohanggi ham seziladi. Ushbu madaniy kodning hurmat aksiologik mohiyati xitoy tiliga ko'chmay qolganligini kuzatish mumkin.

Shuningdek, Xasanalining javobidagi *og'lim* so'zi ham xitoy tilida 先生, ya'ni

janob shaklida berilgan. Roman mazmuniga ko‘ra Otabek va Xasanali o‘rtasidagi munosabatlar ota-o‘g‘il singari juda yaqin bo‘lib, romanda Xasanalining kichik xo‘jayiniga nisbatan *o‘g‘lim, xo‘jazodam, begim* singari murojaatlarini uchratamiz.

Tahlillarimizdan kelib chiqib, mazkur dialogik parchani xitoy tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, hurmat aksiologik markerlarini belgilab olamiz:

Otabek: 您身体还好吗，老伯？.....我想托付您一些事情。

Xasanali: 请吩咐吧，儿子。

Otabek: 谢谢您，老伯，要不您给我们烧点茶吧？

Erni hurmat qilish.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqida madaniy jihatdan ham, diniy jihatdan ham erni oila boshchisi sifatida ulug‘ ko‘rish va hurmat qilish madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kodning ifodasini romandagi turli vaziyatlarda ko‘rish mumkin. Masalan, *Oftob oyim boshqa xotinlarimizdek erining ra‘yi va xohishini, umuman butun shaxsini ehtirom qilg‘uchi bir xotindir*. [O‘tkan kunlar, 49]

奥夫托比 阿依姆应该是个好妻子，尊敬丈夫的意志，重视丈夫的意见。
[往昔, 40]

Bu jumlada aksiologik madaniy kodning eng muhim belgisi bo‘lgan ***boshqa xotinlarimizdek*** so‘z birikmasi xitoy tiliga tarjimada tushib qolgan. Ushbu tushunchani 像我们民族的其他妇女 (so‘zma-so‘z. *millatimizdagi boshqa ayollardek*) tarzida tarjima qilinsa, madaniy kod mohiyati xitoy tiliga to‘liq ko‘chgan bo‘lar edi.

To‘liq jumla tarjimasi varianti: 奥夫托比 阿依姆像我们民族的其他妇女一样，是一位尊重丈夫意愿与心愿、并敬重其人格的贤妻。

Mehmonga izzat-ikrom ko‘rsatish.

Har bir millatga xos stereotip qarashlar bo‘lgani kabi, o‘zbek xalqi madaniyatiga ham tamg‘a bosilgan ayrim ijobiy stereotiplar mavjud. Shulardan biri o‘zbek xalqining nihoyatda mehmondo‘stligidir. Mehmondo‘stlik, mehmonga podsholardek izzat-ikrom ko‘rsatish qadriyatlarimizning eng oliylaridan deyish mumkin. Ana shu mehmondo‘stlik qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi madaniy kodlarni romanda bir necha o‘rinlarda kuzatish mumkin. Masalan, Otabekning Marg‘ilonda Usta Alimni uchratishi va Ustaning o‘z qo‘nog‘ida begona bir kishining mehmon qilishi yaqqol misol bo‘la oladi.

Usta Alimning so‘zlarida o‘zbek millatiga xos “Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, mehr-u diling keng bo‘lsin” kabi purma‘no ufurib turadi: “*Otdan qo‘ningiz mehmon*”, “*Qani ayvong‘a, - deb yo‘l ko‘rsatdi*”, “*Qorningiz albatta ochdir, mehmon?...Yo‘l bilan albatta ochiqqnsiz, savzi-piyoz va go‘shlarim hammasi*

tayyor, faqat o'choqqa olov yoqsam, xolos..." (O'tkan kunlar)

Mazkur mehmonga izzat aksiologik madaniy kodli parcha xitoy tiliga quyidagicha o'girilgan, muqobillik to'liq o'rnatilganini kuzatish mumkin:

“客人，下马吧！”“请到凉台上来！陌生人邀请阿塔别克”

“你一定是饿了？...能理解，你一路走来是饿了。...我这儿有肉、洋葱、胡萝卜，都是现成的，只需要生个火，我做点抓饭”。[往昔, 183-184]

Shu o'rinda yana shuno ta'kidlash mumkinki, yuqoridagi o'zbek tilidagi parchada osh so'zi tilga olinmagan bo'lsada, xitoy tarjimoni kontekstdan kelib chiqib, tarjimaning ma'lumot kiritish usulidan foydalangan holda o'zbek xalqida mehmonlar uchun odatda an'anaviy tayyorlanadigan 抓饭, ya'ni osh so'zini kiritgan.

Quyida romanda tasvirlangan quda mehmonlarni kutib olish misolida mehmondo'stlik madaniy kodi mohiyatini ochib beruvchi yana bir parchani ko'rsak.

“...qudalarning ziyofati uchun kerak bo'lg'an hamma narsalarni ham hozirlatqan, ular kelib tushdi deguncha, bo'g'izlatish uchun, deb bir g'o'non qo'yni og'ilning ustuniga qantattirib qo'yg'an edi”. [O'tkan kunlar, 335]

饮食方面也一切均已准备好，羊圈柱子上拴着一头羊。[往昔, 304]
(so'zma-so'z. *Hamma narsa ovqat va ichimlik uchun tayyor edi. Qo'y qo'radagi ustunga qo'y bog'langan*).

Mahmud Sattorning ta'kidlaganidek, azaldan o'zbek millati odatlariga ko'ra mehmon sharafiga, uning qutlug' poyi-qadamiga atab jonliq-qo'y so'yilgan, to'kin dasturxon bezatilgan. Chunki bu nafaqat o'sha oila, balki qabila, qishloq, millatning sha'ni sanalgan. [Sattor 2007: 69]

Demak, yuqoridagi parchada nafaqat mehmonga hurmat madaniy kodi, balki oila sha'ni kodining ham namoyon bo'lganini kuzatish mumkin.

Xitoy tilidagi tarjima esa aniq muqobil birliklar bilan berilmagan bo'lsada, tarjimada madaniy marker bo'lmish quda so'zining tushirib qoldirilishi, g'o'non, ya'ni *ikki oylik qo'chqor* so'zining generalizatsiya usulida 羊 qo'y so'zi bilan berilishi madaniy kod transferi uchun katta ta'sir ko'rsatganligi muqarrar.

Xulosa

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani o'zbek xalqining milliy ruhiyatini, qadriyatlar tizimini, ma'naviy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi badiiy asar sifatida nafaqat adabiy, balki lingvomadaniy tadqiqot uchun ham muhim manba hisoblanadi. Unda mavjud aksiologik madaniy kodlar xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy ongining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday kodlarning tarjima jarayonida to'liq saqlanishi yoki o'zgarishi millatlararo muloqotning sifatini belgilaydi. Xususan, xitoy tiliga tarjima jarayonida madaniy kodlarning qanday

saqlangani, qay biri neytrallashtirish yoki izohli tarzda berilgani, mahalliyashtirish va xorijlashtirish tarjima usullarining qo'llanilgani tarjimashunoslik uchun alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Chunki o'zbek va xitoy xalqlari qadriyat tizimi ko'p jihatdan farq qiladi, bu esa tarjimada semantik va pragmatik muammolarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "O'tkan kunlar" romanining xitoy tiliga tarjimasida madaniy kodlarning aksariyati semantik jihatdan ko'chirilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda ularning ma'naviy-aksiologik chuqurligi kamaygan. Bu esa tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi, lingvokulturologik sezgirligi va milliy koloritni yetkazishdagi strategik yondashuvining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, madaniy kodlarning xolis va chuqur tahlili nafaqat tarjimashunoslik, balki xalqaro madaniy muloqot jarayonlarida ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Ilieva D. Axiological aspects in language. Proceedings of University of Ruse, 2017, 56. – P. 24-28.
- [2] Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 432 b.
- [3] Sattor M. O'zbek udumlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 192 b.
- [4] Xushnazarova M.M. Aksiologik yondashuv vositasida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashning pedagogik masalalari. Академические исследования в современной науке, 2024, 3(29). – В. 17-24.
- [5] Исматуллаева Н. Хитой лингвомаданиятида "оила" концепти билан боғлиқ стереотип тил бирликларининг таҳлили //Sharq ma'shali/Восточный факел. – 2022. – Т. 14. – №. 1. – С. 82-86.
- [6] Лосев Д.В. Культурный код: определение понятия и практическая проблематика феномена: теоретический обзор. Pan-Art. 2024. Том 4. Выпуск 2. – С. 132-140.
- [7] Савицкий В.М., Черкасова Е.В. Культурные и лингвокультурные коды: теоретический обзор //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2023. – Т. 16. – №. 12. – С. 4351-4358.
- [8] 阿卜杜拉 —卡迪里。往昔。 – 北京：中国社会科学出版社， 2019. – 381 页。 Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. (Tarjimon: 邸小霞 Dǐ Xiǎoxiá). – Pekin: Xitoy ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2019. – 381 b.)